

"MUSTAQILDIK DAVRIDA O'ZBEKISTON IQTISODIY SUVERENITETINING QAROR TOPISHI VA IJTIMOY ISLOHOTLAR DINAMIKASI"

Zafarova Gulzoda Dilshod qizi

Namangan davlat universiteti,

Ijtimoiy fanlar fakulteti, tarix yo'nalishi

E-mail: gulzodazafarova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21767344>

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy iqtisodiyot poydevorining barpo etilishi, iqtisodiy mustaqillikka erishish bosqichlari hamda ijtimoiy islohotlarning rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Sovet davridagi xomashyo yetkazib berishga moslashtirilgan tizimdan bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tish va milliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish omillari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida aholini ijtimoiy muhofaza qilish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish hamda inson kapitaliga qaratilgan zamonaviy islohotlarning natijalari ilmiy-tarixiy faktlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, iqtisodiy suverenitet, ijtimoiy islohotlar, bozor iqtisodiyoti, milliy ishlab chiqarish, Yangi O'zbekiston, inson kapitali, ijtimoiy himoya.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы формирования основ национальной экономики, этапы достижения экономической независимости и развитие социальных реформ в Узбекистане за годы независимости. Рассмотрены факторы постепенного перехода от сырьевой модели советского периода к рыночной экономике и налаживания национального производства. Также на основе научно-исторических фактов освещены результаты современных реформ в условиях Нового Узбекистана, направленных на социальную защиту населения, развитие сфер образования, здравоохранения и человеческого капитала.

Ключевые слова: Независимость, экономический суверенитет, социальные реформы, рыночная экономика, национальное производство, Новый Узбекистан, человеческий капитал, социальная защита.

Abstract: This article analyzes the process of establishing the foundations of the national economy, the stages of achieving economic independence, and the development of social reforms in Uzbekistan during the years of independence. The factors of gradual transition from the Soviet supply system to a market economy and the creation of national production are examined. Furthermore, the results of modern reforms under the conditions of New Uzbekistan aimed at social protection of the population, development of education, healthcare, and human capital are highlighted based on scientific and historical facts.

Keywords: Independence, economic sovereignty, social reforms, market economy, national production, New Uzbekistan, human capital, social protection.

Kirish. 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sovet davridan meros bo'lib o'tgan biryoqlama iqtisodiyotdan voz kechib, milliy manfaatlarga asoslangan iqtisodiy suverenitetni qaror toptirish ustuvor vazifaga aylandi. Dastlabki yillardanoq g'alla va energetika mustaqilligini ta'minlash, milliy valyutani muomalaga kiritish hamda bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tish orqali mamlakat iqtisodiy poydevori shakllantirildi.

1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston zamonaviy tarixining yangi davri boshlandi. Shu kuni Oliy Kengashning navbatdagi tashqari oltinchi sessiyasi -O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risidal Qaror qabul qildi, tegishli bayonot bilan chiqdi va O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risidalgi Qonunni tasdiqladi. Mamlakat taqdiri-O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e'lon qilish to'g'risidalgi Qarorda -1 sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991 yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin, deb qat'iy belgilab qo'yildi. Iqtisodiyotda byurokratiyaga asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'rganilib, samarali olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirish uchun bir qator islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi 1-prezidenti Islom Karimov rahbarligida mamlakatda iqtisodiy islohotlarning besh tamoyili ishlab chiqildi, bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekiston o'z iqtisodiy modelini yaratdi, ijtimoiy sohalarida barqaror o'sish jarayonlari yuz berdi. Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarida yangi sifat bosqichiga chiqildi. Bugungi kunda mamlakatimiz mustaqillik yillarida bosib o'tilgan yo'lni tahlil qilar ekan, bu davr mobaynida erishilgan natijalar xalq farovonligini ta'minlash va milliy iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlash yo'lida muhim o'rin tutganini ko'rish mumkin. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish: Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni yo'lga qo'yish. [7]

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy revolyutsiyasi bu mustaqillikka erishgan yillardanoq boshlanadi. Unga ko'ra, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda taraqqiyotning "O'zbek modeli" yaratilgani va undagi 5 tamoyilda iqtisodiyotga ham alohida urg'u berilganligi bu mustaqillikning dastlabki yillaridayoq iqtisodiy barqarorlikni shakllantirish, yakka hokimlik tizimi illatlarini tezroq bartaraf etish, yurtimizni rivojlangan, ma'daniyatli mamlakatlar qatorigachiqib olishi ko'zda tutilgan edi. Taraqqiyotning o'zbek modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ya'ni iqtisodiyot siyosatdan ustun bo'lishi kerak. Shuningdek, ichki, tashqi va iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi etishni ta'minlash zarur,

ikkinchidan, o'tish davrida davlat asosiy islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi shart;

uchinchidan, qonun ustuvorligiga erishish, qonunlarga qat'iy rioya etish lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni barcha hech istisnosiz hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim;

to'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish kerak;

beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotning ob'ektiv qonuniyatlarini e'tiborga olib, yaqin o'tmishdagi "inqilobiy sakrashlar"siz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. [2]

Ma'lumki, I.Karimov Respublikamiz rahbari sifatida ish boshlagan paytda o'lkamizda uzoq yillar davomida hukm surgan kommunistik mafkura va faqat xomashyo yetkazib berishga asoslanga bir yoqlama iqtisodiy siyosat ham bir sohada o'zining halokatli salbiy ta'sirini keng miqyosda ko'rsata boshlagan edi. Bu davrning eng og'ir va ayanchli ijtimoiy-siyosiy manzarasiga I.Karimov shunday baho beradi: “Sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdan 40 foiz qishloq xoo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan, esa ikki barobar orqada qolmoqda. Respublikada aholi jonboshiga xalq iste'moli mollari, ishlab chiqarishi o'rta Ittifoq darajasining atigi 40 foizini tashkil qiladi. Biz daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rinlarda turibmiz. O'zbekiston aholisi, o'rta hisobda, go'sh mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45 foizga boradi. [4 ,227-bet]

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichidayoq “Respublika ko'chmas mulk birjasi”, “Tovar xom ashyo birjasi”, “Toshkent fond birjasi” tashkil etildi. Bu tarmoq yanada rivojlantirildi. 1991-2000-yillarda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun xizmat qiluvchi 58 ta tovarlar va xom ashyo birjalari, 24 ta biznes inkubator, 496 ta auditorlik va konsalting firmalari, ko'plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi. Bozor munosabatlarini rivojlantirishda axborot infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarni to'plovchi, umumlashtiruvchi vositalar, firmalar vujudga keladi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi va haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi. 1994-yil 16-iyundagi “O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasing muomalaga kiritish to'g'risida”gi Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 1994-yil 1-iyuldan boshlab milliy valyuta –so'm muomalaga kiritildi. 1 so'm kursi 1000 so'm-kuponga tenglashtirilgan holda joriy qilindi. [1]

Istiqloлга erishgan O'zbekiston tarixda ilk bor 1995 yili neft mustaqilligiga erishdi. 2006 yili ichki yalpi mahsulot ishlab chiqarish 7,3 %, sanoat ishlab chiqarish 10,8 % ga ortdi. 2006-yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida qo'shimcha ravishda 290 ming yangi ish o'miyaratildi. Bu esa, mamlakatimizda ochilgan yangi ish joylarining 50% dan ortig'ini tashkil etadi. 2007-yilning boshida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining soni qariyb 350 mingga yetdi. Yoki 2000- yildagiga nisbatan 2,3 marta ko'paydi. Bugungi kunda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 42,1% ni tashkil etmoqda. O'zbekistonda neft va gaz kondensati ishlab chiqarish 1990 yili 2,8 mln.tonna bo'lsa, 1997 yili 7,9 mln.tonnaga yetdi va chetga neft sotish qobiliyatiga ega. [3]

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Hattoki, 2008-2009 yillarda jahon miqyosida ro'y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida ham O'zbekiston milliy iqtisodiyotining o'sish sur'atlari bo'yicha dunyo mamlakatlari ichida yuqori o'rinlarda bo'lishga erishdi. 2010-yildan buyon O'zbekiston YaIMning yillik o'sish sur'atlari 8 foizdan past bo'lmagan darajada qayd etilmoqda. Jahon hamjamiyati ekspertlari tomonidan tan olingan bu ijobiy natijalar zahirida respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ulkan salohiyati hamda mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning "o'zbek modeli asosida bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilayotgan aniq maqsadlarga yo'naltirilgan islohotlar yotadi. [6,76-86-bet]

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida boshqaruvning bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, xususiy mulk ustuvorligini ta'minlash, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi turli xil byurokratik to'siq va g'ovlarni barataraf etish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Natijada o'tgan davr mobaynida iqtisodiyotning tarkibi tubdan o'zgardi. Shu o'rinda, agar 25 yil avval O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik deyarli mavjud bo'lmagan bo'lsa, bugungi kunga kelib barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning 90 foizdan ortig'i - bu kichik biznes korxonalari ekanini ta'kidlash kifoya. 2000 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 31 foizi kichik biznes sohasida yaratilgan bo'lsa, 2015 yilda mazkur ko'rsatkich 56,5 foizni tashkil etdi. [5. 18-bet]

Xulosa.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda iqtisodiy suverenitetning qaror topishi va ijtimoiy islohotlar dinamikasi milliy davlatchilik hamda barqaror taraqqiyot poydevorini yaratdi. Bu jarayon resurs mustaqilligini ta'minlash, sanoatni modernizatsiya qilish va erkin bozor mexanizmlariga o'tish orqali tashqi xatarlarga chidamlilikni oshirdi. O'zbekiston iqtisodiy suverenitetni ta'minlash va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda salmoqli natijalarga erishdi. 1990-yillardagi g'alla va energetika mustaqilligi strategiyasidan izchil ravishda sanoatlashtirish va erkin bozor modeliga o'tilishi natijasida YIM hajmi 100 milliard dollarlik marradan oshdi hamda 2017–2023-yillarda 50 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb qilindi.

Ijtimoiy islohotlar dinamikasi doirasida kambag'allik darajasi 17% dan 11% ga tushirildi, oliy ta'lim bilan qamrov esa 9% dan 42% ga yetkazildi. Erishilgan ushbu iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar mamlakatning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvi hamda uzoq muddatli barqaror taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abduazizova N. O'zbekiston tarixi (Mustaqillik istiqlool davri) 3-kitob. – Toshkent: "SHARQ", 2015.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: "O'zbekiston", 1992.
3. Karimov I.A. Hozirgi bosqichning muhim vazifalari. – Toshkent: "O'zbekiston", 1996.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: "O'zbekiston", 2012. – 227-b.
5. Рашидова Ф.Ш. Роль женского предпринимательства в развитии и процветании государства // Научный вестник СамГУ. Серия "Гуманитарные науки". – 2013. 80. С. 18.
6. Рашидова Ф.Ш. Иностранные инвестиции в развитии предпринимательства – как важный фактор формирования среднего класса в Узбекистане // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2021. – Т. 2. С. 76-86.
7. To'laganov O. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonning rivojlanish modeli. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.